Annotatsiya: Mazkur maqlolada xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini boshqarishni tubdan o'zgartirish masalasini, xo'jalik mexanizmini va uning axborot ta'minotining asosi bo'lgan buxgalteriya hisobi sohasida, xususan, yangi xo'jalik shakliga va mazmuniga ega o'lgan klaster nomini olgan sohada ham islohotlar qilish masalasini o'rtaqa qo'yadi. O'tgan uzoq vaqt ichida buxgalteriya hisobi asosan davlat mulki butligi ustidan nazorat qilish, hisobot tuzish vositasi bo'lib hisoblangan va u oqibat natijada subyektning boshqaruv bo'limlaridan ajralib qoldi. Buxgalteriya hisoboti axborotlari o'tgan davrga tuzilib, sodir bo'lgan voqealarni aks ettirilishi natijada xo'jalik subyektlarini boshqarishda buxgalteriya hisobi axborotlaridan qoniqarsiz foydalilmoqda, chunki axborotlar ancha kechikib taqdim etilganligi sababli uning natijasi bo'yicha tegishli qarorlar qabul qilish imkoniyati kamayadi. Shu bois mamlakatimizda don mahsulotlarini yetishtirish va uni qayta ishlash xarajatlarining boshqaruv hisobi, auditi va tahlil qilish masalalarini o'rganishni dolzarb deb hisobladi.

Kalit so'zlar: don mahsuloti, hisob siyosati, boshqaruv hisobi, klasterlar, audit, tahlil qilish, qayta ishlash, texnologiya, boshqaruv axboroti.

Abstract: This article examines the issue of a fundamental change in the management of the activities of business entities, the economic mechanism and the basis of its information support, in particular in the field of accounting, which is called a cluster with a new economic form and the content raises the question of reforms in this area. For a long time, accounting was viewed mainly as a means of control over all state property, as a reporting tool and, as a result, was separated from the management units of the enterprise. As a result of the fact that accounting information is compiled for the past period and reflects events, accounting information is used in the management of business entities unsatisfactorily, since the information is presented much later, and the possibility of making appropriate decisions regarding its result is reduced. We considered it relevant to study the issues of management accounting, auditing and cost analysis for the production and processing of grain products in our country.

Key words: grain products, accounting policies, management accounting, clusters, audit, analysis, processing, technology, management information.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос кардинального изменения управления деятельностью хозяйствующих субъектов, экономического механизма и основы его информационного обеспечения, в частности, в сфере бухгалтерского учета, который называется кластером с новой экономической формой и содержание поднимает вопрос о реформах в этой области. В течение длительного времени бухгалтерский учет рассматривался главным образом как средство контроля над всем государственным имуществом, как инструмент отчетности и, как следствие, был отделен от подразделений управления предприятия. В результате того, что информация бухгалтерской отчетности составляется за прошедший период и отражает события, учетная информация используется в управлении хозяйствующими субъектами неудовлетворительно, поскольку информация представляется значительно позже, и снижается возможность принятия соответствующих решений относительно ее результата. Мы считали актуальным изучение вопросов управленческого расчета, аудита и анализа затрат на производство и переработку зерновой продукции в нашей стране.

Ключевые слова: зерновая продукция, учетная политика, управленческий учет, кластеры, аудит, анализ, обработка, технология, управленческая информация.



KIRISH

Mamlakatimizning qishloq xo'jaligi tarmog'ida xalqaro andazalar asosida bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun barcha imkoniyatlар va tajriba ham mavjud. Ma'muriy - buyruqbozlik tizimidan meros bo'lib qolgan iqtisodiy va siyosiy munosabatlар bilan istiqbolli boshqaruv majmuasini yechish mumkin emasligini davr ko'rsatib berdi. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ma'muriy buyruqbozlik tizimidan holi bo'lgan erkin bozor munosabatlariiga o'tmasdan turib, inson qadrini oshirish, shaxs va jamoa manfaatdorligini, xalq turmush sharoitini yaxshilab bo'lmaydi. Bu masalalar majmuyida xo'jalik boshqaruvining barcha funksiyalari, shu jumladan ishlab chiqarish xarajatlarini buxgalteriya hisobi, nazarat va tahlilini va mahsulotlar tannarxini hisobga olishni oqilona tashkil qilish va uni takomillashtirish vazifalari yotadi. Albatta, bu yo'l oson yo'l emas. Uning murakkabligi konservativ qarashlar inersiyasi va avvalgi tassavurlarni yengish, dehqonda yerga, texnikaga va boshqa ne'matlarga bo'lgan haqiqiy egalik hissini uyg'otish, bozor munosabatlariiga to'sqinliq qilayotgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi qoldiqlariiga barham berish zaruriyatini yotadi. Qishloq xo'jaligida bozor tizimi barcha mulk egalarini teng huquqlilagini, ularning ijtimoiy va iqtisodiy himoyasini kafolatini ta'minlaydigan ijtimoiy-huquqiy asosini yaratishi lozim.

Bunday islohatlarni quyidagi yo'nalishlarda olib borishni maqsadga muvofiq deb bilamiz:

- birinchidan, ekin ekiladigan yerlardan foydalanish yaxshilash va qishloq xo'jaligi tarmog'ida ish yuritishni tubdan o'zgartirish;
- ikkinchidan, yerni o'zining haqiqiy egasiga topshirish;
- uchinchidan, g'alla yetishtirish va uni qayta ishlashni uyg'unlikda amalga oshirish;
- to'rtinchidan, ishlab chiqaruvchi bilan davlat o'tasidagi munosabatlari bozor talablari asosida amalga oshirilishini ta'minlash.

Mustaqillik yillarda ishloq xo'jaligi tarmog'ini xususiyatini hisobga olgan holda aytib o'tilgan choralarning amalga oshirilishini ta'minlovchi aniq maqsadga yo'naltirilgan yagona konsepsiya yaratildi. Unga ko'ra hozirgi kunga qadar shakllangan g'allachilik majmuyi korxonalarida tashkiliy-texnik va ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalar sohadagi islohatlarni amalga oshirilishini ta'minlashi uchun ularni tubdan qayta tashkil etishni taqozo etadi. Respublikaning sanoati rivojlangan mamlakatlarning xom ashyo bazasi bo'lischenidan voz kechishi, g'allachilik sohasining yuqori hosildorlik va samaradorligini ta'minlovchi g'allani qayta ishlash sanoati korxonalarini ahamiyatini yanada oshiradi. Bunday tarkibiy o'zgarishlar g'allani qayta ishlash korxonalarini hududlar bo'yicha optimal joylashtirishda, xarajatlardan tejab-tergab foydalanishda, pirovard natijada, ularni ish samaradorligini oshirishda namoyon bo'ladi. Mustaqillik yillarda g'allachilikda xo'jalik tarzining tarkibi yanada mustahkamlanib bordi. Dastlabki yillarda monopol, jamoa mulkiga asoslangan shirkat xo'jaliklari va paychilikka asoslangan qishloq xo'jaligi korxonalari o'rniga xususiy mulkka tayangan optimallashgan fermer xo'jaliklari barpo etilgan bo'lsa, bugunga kelib g'allani yetishtirish va chuqur ishlov berishga qaratilgan va xususiy mulkga asoslangan klaster va g'allachilik kooperativlari rivojlanmoqda. Natijada yer egasini topdi. Unumdonligi past va faqat g'alla yetishtirishga qaratilgan fermer xo'jaliklarining o'rniga tashkil etilayotgan g'allachilik klasterlari va qishloq ho'jaligi kooperativlari soha iqtisodiyotini mustahkamlashning yagona va to'g'ri yo'li ekanligi o'z tasdig'iini topmoqda.

Qayd etilishicha, mamlakatda agrar sohani isloh qilish, unga bozor mexanizmlari va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, klaster usuli yo'lga qo'yildi, ekin turlari zamon talabidan kelib chiqib o'zgartirildi. Natijada hosildorlik ham, daromad ham oshmoqda. Respublikada yetishtirilayotgan 80 turdan ortiq qishloq xo'jaligi mahsulotlari 66 ta mamlakatga eksport qilinmoqda.

Muxtaram Prezidentimizning har bir utkazayotgan yigilishlarida klasterlarning rejadagi quvvatlari, investitsiya miqdori va eksport hajmi bo'yicha ma'lumotlar chuqur tahlil qilinadi.

Yig'ilishda gallachilik klasterlari faoliyatini takomillashtirish, paxta va g'alla yetishtirishda davlat rejasini bosqichma-bosqich bekor qilish masalalari ham muhokama qilindi.

Davlat rahbari bu haqda joriy yil 24-yanvardagi Murojaatnomasida "Paxta va g'alla yetishtirishga davlat buyurtmasini bekor qilib, ushbu mahsulotlarni bozor tamoyillari asosida xarid qilish tizimiga bosqichma-bosqich o'tamiz deb ta'kidlagan edi. Agar bu yo'ldan bormasak, fermer va dehqonlarimiz mahsulot yetishtirishda erkin bo'lmaydi, ular o'zlarini kutganlaridek manfaat ko'rmaydi, hokimlarning esa ish uslubi o'zgarmaydi", – deb ta'kidlagan edi. Ta'kidlanishicha, bu sohada davlat aralashuvini keskin kamaytirish bilan birga hokimlarning reja ortidan quvish va majburiy mehnatga jalb qilish amaliyotiga butunlay chek qo'yadi.

Yig'ilishda klasterlarning huquqiy maqomini belgilash, ularni tanlash, fermerlar bilan munosabatlariini to'g'ri yo'lga qo'yishning ochiq-oshkora mexanizmlarini joriy etish bo'yicha vazifalar belgilandi.

Mamlakatimiz raxbari klasterlarni tanlashda chuqur qayta ishlash darajasi va investitsiyalar hajmi, fermerlar bilan hisob-kitob qilishda mablag'ning yetarliligi asosiy mezonlar bo'lishi zarurligini ta'kidladi.

Klaster tashkil etilmagan don ekilgan maydonlarida fermerlar ishtirokida kooperatsiyalar faoliyati yo'lga qo'yilishi belgilandi. Bunda o'sha hududlardagi donni kayta ishlash korxonalarini fermerlarga kooperatsiya tashkil etish uchun beriladi, qo'shilgan qiymatdan tushgan daromad kooperatsiya a'zolari - fermerlar o'tasida taqsimlanadi.



Qishloq xo'jaligi vazirligi hamda Adliya vazirligiga klasterlar va fermerlarning majburiyatlarini aniq belgilab, ularning faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi.

Don yetishtirishni moliyalashtirishning amaldagi tizimi klasterlar bilan ishlashga moslashmagani ko'rsatib o'tildi. Shu bois klasterlar va fermerlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida sodir bo'lgan tub o'zgarishlar agrosanoat majmuasidagi donni qayta ishlash korxonalarining egalari va faoliyatining maqsadlari o'zgarishiga olib keldi. Davlat tasarrufidan tashqari xususiy shaxslar va klasterlar ularning mulkdorlariga aylandi va ularning faoliyatidan maqsad xarid va ishlab chiqarish rejalarini bajarish emas, balki foyda olishga qaratilishi sir emas. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini davlat tomonidan xarid qilish sezilarli darajada qisqarganligi sababli ushbu korxonalarning ichki buxgalteriya hisobi ham isloh qilinmoqda, uni muvofiqlashtirish maqsadida xalqaro buxgalteriya hisobi va hisobot standartlariga moslashtirilmoqda. Yaratilayotgan soliq tizimi doimiy o'zgarishlar holatidadir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ushbu masalaga M. S. Pushkar tomonidan quydagicha tavsif berilgan: "Agar ishlab chiqarish hisobi ishlab chiqarish xarajatlarini aks ettirishning uslubiyoti va texnik tomonlariga e'tibor qaratgan bo'lsa, boshqaruv hisobi – vaziyatni tahlil qilish, qaror qabul qilish, axborotlarni iste'molchilar talabiga ko'ra o'rganish, tannarxni tashkil topishi, xarajatlarni me'yordan chetga chiqishini tahlil qilish va boshqa masalalarni ochib berishga qaratilgan".

Ch. T. Xorngren, Dj. Fosterlarning fikriga ko'ra, boshqaruv hisobi quydagi mazmunga ega: "Boshqaruv hisobi qandaydir ob'yeektni boshqarishda zarur bo'lgan axborotlarni aniqlash, baholash, to'plash, tizimlashtirish, tahlil etish, bo'laklarga ajratish, talqin qilish va taqdim etishdan iboratdir".

B. Yu. Maksudov o'zining ilmiy ishlari boshqaruv hisobi bo'yicha quydagi ta'rifni shakllantirgan: "Boshqaruv hisobi korxonaning ichki hisob tizimi bo'lib, korxona faoliyatining hozirgi va kelgusida rivojlanishini muvofiqlashtirish, optimallashtirish hamda istiqbolni belgilash maqsadida hisob jarayoni va boshqaruv tizimi o'rtasida bog'lovchilik vazifasini bajaruvchi boshqaruv axborotlari bilan ta'minlashning integrallashgan tizimidir".

Korxonalar uchun yangi ish sharoitlari buxgalteriya tizimini tubdan o'zgartirmoqda. Ilgari birlashtirilgan buxgalteriya hisobi tizimi uchta quyi tizimga bo'lindi: boshqaruv hisobi, moliyaviy hisob va soliq hisobi, ularning har biri o'z ta'rifi, ob'ekti va usullariga ega.

Korxonalar uchun yangi ish sharoitlari buxgalteriya tizimini tubdan o'zgartirmoqda. Ilgari birlashtirilgan buxgalteriya hisobi tizimi uchta quyi tizimga bo'lindi: boshqaruv hisobi, moliyaviy hisob va soliq hisobi, ularning har biri o'z ta'rifi, ob'ekti va usullariga ega.

Hozirgi vaqtda korxonalarning asosiy intilishlari ishlab chiqarishni boshqarish samaradorligini oshirish bilan bog'liq, shuning uchun boshqaruv hisobi ayniqsa muhimdir. Buxgalteriya hisobini boshqaruv ehtiyojlari qayta yo'naltirish uchun dolzarbdir, chunki tezkor ma'lumot bilan ta'minlash eng oqilona boshqaruv qarorlarini o'z vaqtida qabul qilish imkonini beradi.

Donni qayta ishslash korxonalarining asosiy faoliyat turlarini tarmoqlar bo'yicha ulgurji savdo va sanoat deb tasniflash mumkin. Biroq, ular texnologik xususiyatlarga ega. Ilgari ushbu korxonalarda buxgalteriya hisobini yuritish tartibini tartibga solgan me'yoriy hujjatlar eskirgan va hozirda uni yuritish uchun asos bo'la olmaydi va iqtisodiy adabiylardan bu muammolar yoritilmagan.

Tadqiqotlar xususida mulohazalarimizning dolzarbligini shu bilan yana ta'kidlash mumkinki, donni qayta ishslash korxonalarining buxgalteriya hisobi va ichki audit tizimini yanada rivojlanirishga bo'lgan ehtiyojlari bilan belgilanadi. Xarajatlarni hisobga olish muammolarini hal etish, ularni mahsulot, ish va xizmat turlari bo'yicha aniq sanoat sharoitida oqilona taqsimlash ayniqsa muhimdir. Zamonaviy usullar va asosli tavsiyalarning yo'qligi soliqlarni hisoblashda jiddiy xatolarga yo'l qo'ymoqda va buning natijasida soliq organlari tomonidan jarimalar qo'llash natijasida moliyaviy yo'qotishlar kelib chiqishi mumkinligini unutmasligimiz kerak.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishslash xizmatlari uchun narxlar va to'lovlarni belgilashda donni qayta ishslash va qishloq xo'jaligi korxonalari o'rtaqidagi iqtisodiy munosabatlar, shuningdek, buxgalteriya hisobi masalalari muammoli bo'lib hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotchilar o'z oldiga maqsad qilib donni qayta ishslash korxonalarida mavjud buxgalteriya hisobi va audit tizimini tanqidiy tahlil qilish asosida uni takomillashtirish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni xam qo'yishlari zarur.

Belgilangan maqsaddan kelib chiqib quydagi muammolarni hal qilish zarurligini maqsadli deb hisobladi:

1. Buxgalteriya hisobi va auditning nazariy asoslari va ularning genezisini o'rganish.
2. Donni qayta ishslash korxonalarining xo'jalik faoliyati va ulardagи joriy hisob va audit amaliyotini tahlil qilish.



3. Donni qayta ishlash korxonalari faoliyatining tarmoqqa xos xususiyatlarini umumlashtirish, ularning xarajatlar hisobini tashkil etishga ta'sirini o'rganish va xarajatlarni faoliyat turlari, mahsulot, ishlar, xizmatlar o'tasida taqsimlashning mumkin bo'lgan usullarini aniqlash.
 4. Korxona tomonidan eksport qilinadigan xizmatlar ishlab chiqarishda foydalaniladigan va byudjetdan qoplanishi shart bo'lgan resurslarga tegishli qo'shilgan qiymat solig'i summalarini hisoblash imkoniyati va usulini o'rganish.
 5. Korxonaning hisob siyosati va ichki auditini takomillashtirish bo'yicha takliflarni asoslash.
- Tadqiqotlar natijasida donni qayta ishlash korxonalarining birlamchi, sintetik va analitik buxgalteriya hisobi ma'lumotlari, moliyaviy (buxgalteriya) hisobotlari va muallifning bosh buxgalter va auditor sifatida ishlagan paytida to'plangan shaxsiy tajribasidan foydalanilgan. Tadqiqot jarayonida tahlilning umumiyligi ilmiy usullari, so'rov usullari, umumlashtirish, taqqoslash, o'rganilayotgan ob'ektlarga tarixiy va mantiqiy yondashuvlardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Buxgalteriya hisobining funktional yo'nalishi va tashkiliy tuzilmasini o'zgartirish butun xo'jalik hisobi tizimining sifat darajasini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, boshqaruvin hisobi va ichki auditning zamонавиу vazifаларга mos keladigan darajasi ijrochilarining ishini nazorat qilish va javobgarlikni taqsimlashning o'zaro bog'liq muammolarini hal qilishni ta'minlaydi, bu nazorat harakatlarining sifat xususiyatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi.
2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, tozalash, quritish va qayta ishlash bo'yicha xizmatlar narxilari hamda tayyor mahsulot ishlab chiqarish standartlarini belgilashda donni qayta ishlash va qishloq xo'jaligi korxonalari o'tasidagi munosabatlardagi muammolar birinchisining monopol mavqeib bilan bog'liq. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning moliyaviy manfaatlariga putur yetkazilishi, qayta ishlash korxonalaridan hisobsiz ortiqcha mahsulot yetishtirilishi, byudjetga soliqlarning kam to'lanishi bu holatning natijasidir.
3. Donni qayta ishlash korxonalari faoliyatining o'ziga xos tarmoq xususiyatlari, o'zgargan bozor sharoitlarida ularning diversifikatsiyasi hamda zamонавиу normativ-huquqiy bazaning yo'qligi xarajatlarni faoliyat turlari, mahsulot, ishlar va xizmatlar bo'yicha asosli taqsimlash muammosini keltirib chiqardi. taqsimlash xarajatlarining bitta buxgalteriya hisobiga integratsiyalanganligi hisobga olinsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Qayta ishlangan va to'liq bo'lmagan qishloq xo'jaligi mahsulotlari miqdorga mutanosib ravishda ularni shartli miqdorga kamaytirish koeffitsientlari tizimidan foydalangan holda xarajatlarni taqsimlashning taklif etilayotgan usullari buxgalteriya hisobi, statistik, boshqaruvi, moliyaviy va soliq hisobotlari uchun ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish imkonini beradi.

4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini MDH davlatlaridan tashqariga eksport qilish bo'yicha xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish uchun foydalaniladigan va donni qayta ishlash korxonalari tomonidan byudjet mablag'lari hisobidan qoplash uchun taqdim etiladigan resurslar bilan bog'liq qo'shilgan qiymat solig'i miqdorini aniqlash bilan bog'liq muammolarni hal qilish maxsus hisob-kitoblar orqali mumkin.

Ular korxonaning barcha xarajatlarini hisobot davridagi mahsulot ishlab chiqarishning umumiyligi hajmida eksport qilinadigan xizmatlar ulushiga mutanosib ravishda taqsimlash tamoyiliga asoslanadi. Bunda bojxona hujjatlarining zarurligi, uning tarkibi va soliq organlariga taqdim etish muddatları to'g'risidagi qonun hujjatlarini talablari inobatga olinadi.

5. Donni qayta ishlash korxonalarining buxgalteriya hisobi va ichki audit tizimini rivojlantirish bo'yicha bir qator muammolar ularning hisob siyosati va nazoratini takomillashtirish orqali hal etilmoqda. Xo'jalik operatsiyalarini qayd etish usullarini to'g'ri tanlash va ichki audit xizmatlarining ishlash tamoyillariga riyoq qilish korxona maqsadlariga erishishni samarali ta'minlaydi.

Shu yo'nalishdagi tadqiqot ishining amaliy ahamiyati bugungi davr talabi bo'lib, birinchi navbatda, uning asosiy uslubiy qoidalari donni qayta ishlash korxonalarida mahsulot, ish va xizmatlarni rejalashtirish, hisobga olish va hisoblash bo'yicha tarmoq yo'rqnomalari kiritilishi mumkinligidadir. Ushbu korxonalarda buxgalteriya hisobi va audit tizimini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan uslub va tavsiyalar mustaqil amaliy ahamiyatga ega. Mazkur uslublardan foydalanish natijasida:

- mahsulot, ish va xizmatlarni ishlab chiqarish va sotish tannarxini hisoblash;
- korxonaning hisob siyosatini maqsadli va har tomonlama shakllantirish;
- eksport xizmatlarini ko'rsatishda "kirish" QQS miqdorini asosli ravishda hisoblash;
- "to'lov bo'yicha" soliqqa tortiladigan to'langan mahsulot tannarxini to'g'ri aniqlash;
- ichki audit samaradorligini oshirish;
- qishloq xo'jaligi va donni qayta ishlash korxonalari o'tasidagi munosabatlarni yaxshilash mumkin bo'ladi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Buxgalteriya hisobi va auditning nazariy tadqiqotlari va donni qayta ishlash korxonalarida amaliyotni o'rganish bizga bir qator xulosalar chiqarish va ularni zamonaviy sharoitlarda takomillashtirish bo'yicha takliflarni shakllantirish imkonini beradi.

Ko'p ming yillik rivojlanish yo'lidan o'tib, bugungi kunda buxgalteriya hisobi uch turdag'i tizimdir: boshqaruv, moliyaviy va soliq hisobi. Buxgalteriya hisobining barcha turlari tadqiqotimiz ob'ektlari amaliyotida u yoki bu darajada mavjud bo'lib, unda ma'lum o'rnlarni egallaydi.

Boshqaruv hisobi korxona faoliyatini boshqarish uchun boshqaruv xodimlari uchun bo'lgan xarajatlar va xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobga olish, rejalashtirish, nazorat qilish, tahsil qilish tizimi sifatida hozirgi vaqtida ishlab chiqarish hisobidan boshqaruv hisobiga o'tish bosqichida.

Buxgalteriya hisobi moliyaviy natijalarni aniqlash va hisobot davri uchun moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun buxgalteriya hisoblari bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlarni to'plash tizimi sifatida an'anaviy ravishda barcha xo'jalik hisobi tizimida asosiy o'rinni egallaydi.

Soliq hisobi korxonaning soliq majburiyatlарини to'g'ri hisoblash uchun zarur bo'lgan iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlarni to'plash, hisobga olish va qayta ishlash tizimi sifatida hozirda yangi bosqichga olib chiqisni taqozo etadi.

Audit tizimi ikki turdan iborat bo'lib, mulkdorning manfaatlariga va boshqaruv - ijrochi menejerning manfaatlariga xizmat qilishi zarur. Fikrimizcha, taftish o'tkazuvchi taftish komissiyalarining faoliyati bir qator sabablarga ko'ra samarasiz bo'lib, ular, qoida tariqasida, aksiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi uchun rasmiy hisobot tuzish bilan cheklanib, haqiqiy tekshiruvlar o'tkazmaydi.

Ichki audit samaradorligini oshirish maqsadida biz quyidagi tavsiyalarni samarali deb hisoblaymiz. Taftish komissiyasi to'g'risidagi taxminiy Nizom, uning ishlash tartibi va uning a'zolarining har bir auditorlik tekshiruv uchun to'lov va oshirilgan dividendlar shaklida manfaatdorligini belgilovchi; ichki audit metodologiyasi, shu jumladan auditni rejalashtirish tartibi, yo'nalishlar ro'yxati, amalga oshirish usullari va uni amalga oshirish to'g'risidagi hisobot; ikkita asosiy yo'nalish bo'yicha audit dasturlari: ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot harakatini hisobga olish.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, quritish va qayta ishlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish va ishlarni bajarishda donni qayta ishlash korxonalari va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari o'rtaSIDAGI munosabatlar tizimidagi kamchiliklar mavjud. Asosiyasi, birinchi faoliyat sohasida monopol mavqeidan foydalaniib, to'lov tartib-qoidalalarini, xizmatlar va ishlarni ko'rsatish uchun narxlar va shartlarni joriy qiladi, bu esa ikkinchisining moliyaviy holatiga salbiy ta'sir qiladi. Shu bilan birga, etkazib beruvchilar soliqqa tortilmaydigan, hisobga olinmagan mahsulotlar va biznes chiqindilari zaxiralalarini yaratadilar.

Normativ-huquqiy hujjatlar liftlar uchun tozalashdan keyin olingen chiqindilar va tozalangan mahsulotlarning narxini va hisob-kitob narxini aniqlash tartibini nazarda tutmaydi. Bu muammo biz ishlab chiqqan metodologiya yordamida hal qilindi, mahsulot va chiqindilar miqdori nisbati printsipiga asoslanib, ifloslanish bo'yicha bir xil sifatga tushirildi va amaliy foydalanish uchun quay shakl ko'rinishida shakllantirildi. qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chiqindilarni tozalashdan keyin buxgalteriya bahosi.

Umumiy xo'jalik xarajatlarini hisobga olish holatini tahsil qilish bizga ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lgan va faqat uni tashkil etish va boshqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarini asossiz ravishda o'z ichiga oladi degan xulosaga kelishimizga imkon beradi, bu esa tannarxning buzilishiga olib keladi. ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning yaxlitligi, shuningdek uning har bir turi alohida. Zamonaviy me'yoriy hujjatlarda umumiy biznes xarajatlarining to'liq ta'rifi berilmagan, ushbu xarajatlarga tegishli xarajatlarning o'ziga xos tarkibi va ularni mas'uliyat markazlari o'rtaSIDA taqsimlash tartibi belgilanmagan.

Yana bir e'tiborli taklif, umumiy biznes xarajatları ro'yxatini qayta o'rganib chiqish va iqtisodiy toifanining ma'nosidan kelib chiqib tuzilishi xam ilmiy qarashlar tadqiqotiga muxtoj. Xarajatlarini mas'uliyat markazlari o'rtaSIDA taqsimlash tadqiqot ob'ektlari faoliyati turlarining ko'pligi va turli xilligi sharoitida eng oqilona va mumkin bo'lgan hisoblangan ish haqiga mutanosib ravishda amalga oshirilishi kerak dtb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-sون Farmoni.
2. AUDIT., N. Toshmamatov, X. Kamolov, I Nosirov, S. Toshmamatov, Uchebnaya posobiya . – g.Andijan – 2018, – 300 s.
3. Nosirov I.A.(2017).The role of the ecological management on the developing of small business. Theoretical & Applied Science.
4. Nosirov IA.(2016). Vliyaniye nauchno-texnicheskogo progressa v effektivnom ispolzovanii resursov. LI Respublikni Uzbekistan. Vestnik Respublikni Karakalpagistani.
5. I.Ismayev, N.Toshmamatov, S.Buzrukxonov. Moliyaviy hisob va hisobot. Darslik. Toshkent. "Sano-standart"-2019-yil.
6. Nosirov I. A. Sovershenstvovaniye ucheta i analiza zatrata xlopopererabativayuushix predpriyatiy (na primere kooperativnx xozyaystv Ferganskoy dolini) .Monografiya. 1998 g.

Yashil

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Telefon: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

